

LOGORITMIKA MASHG‘ULOTLARINING BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

*Xaliyarova Zilola Muxitdin qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Maxsus Pedagogika –U72 talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada logoritmika mashg‘ulotlarining mактабгача yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Logoritmika – musiqiy-ritmik harakatlar, qo‘shiqlar, she’rlar va o‘yinlar orqali nutq faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi maxsus metodik yo‘nalish hisoblanadi. Maqolada logoritmikaning bolalarda talaffuz, ritm, ohangdorlik, so‘z boyligini oshirish, diqqat va xotirani mustahkamlashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqida turli nuqsonlar bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan logoritmik mashg‘ulotlarning samarali jihatlari ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Logoritmika, nutq rivojlantirish, musiqiy-ritmik mashqlar, mактабгача yoshdagi bolalar, logopedik mashg‘ulotlar, talaffuz, ritm, ohangdorlik, nutqiy nuqsonlar, psixomotor rivojlanish, nutq madaniyati.

Mактабгача yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim-tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki nutq bolaning tafakkuri, ijtimoiylashuvi va atrof-muhit bilan muloqotini ta’minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Bola nutqining to‘laqonli rivojlanishi uning keyingi ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun zamin yaratadi. Shu bois nutqiy rivojlanishda yuzaga keladigan turli nuqsonlarni erta aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, nutqni yanada boyitish va takomillashtirish bo‘yicha samarali metodlarni qo’llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunday metodlardan biri — logoritmika bo‘lib, u musiqiy-ritmik mashqlar, qo‘shiqlar, she’rlar va o‘yinlar orqali bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Logoritmik mashg‘ulotlar nafaqat talaffuz va ohangdorlikni yaxshilash, balki bolalarning diqqatini jamlash, xotira va harakat koordinatsiyasini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli logoritmika bugungi kunda logopediya va mактабгача ta’lim amaliyotida keng qo’llanilayotgan samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada logoritmika mashg‘ulotlarining bolalar nutqini rivojlantirishdagi o‘rni, ahamiyati hamda uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi amaliy imkoniyatlari tahlil etiladi.

Logoritmika — bu nutqni rivojlantirish, nutqiy nuqsonlarni tuzatish va psixomotor ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus metodik yo‘nalish

bo‘lib, musiqiy-ritmik mashqlar, she’rlar, qo‘shiqlar va o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu mashg‘ulotlar bolaning nutqiy apparatini faollashtiradi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, nutq ohangini shakllantirish va nutq ritmini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Logoritmikaning assosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Nutq apparati mushaklarini faollashtirish;

Nutqning ritmik va intonatsion jihatlarini rivojlantirish;

Musiqa va harakat uyg‘unligi orqali bola nutqini faol qilish;

Diqqat, xotira va tafakkurni faollashtirish;

Nutqiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish.

Logoritmik mashg‘ulotlar bolaning nutq rivojlanishida ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Eng avvalo, musiqiy-ritmik mashqlar nutqning ritmik tuzilishini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, bolalar she’rlarni qo‘sish ohangida takrorlash orqali tovushlarni aniq talaffuz qilish, nutqning tezligi va ohangini nazorat qilishni o‘rganadilar.

Bundan tashqari, logoritmik mashqlar nafaqat nutqiy, balki psixomotor rivojlanishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ritmik harakatlar bola organizmida muvofiqlikni ta’minlaydi, mayda va yirik motorika faoliyatini faollashtiradi. Bu esa o‘z navbatida nutq apparatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, logoritmika mashg‘ulotlari bolalarning emosional holatini barqarorlashtiradi, o‘ziga ishonchni oshiradi, ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtiradi. Bolalar guruhli mashg‘ulotlarda o‘zaro hamkorlikda ishtiroy etar ekan, ular nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar.

Logoritmika ayniqsa nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun samarali usul hisoblanadi. Nutq buzilishlari (dizartriya, dislaliya, afaziya, rinolaliya va boshqalar) bo‘lgan bolalar musiqiy-ritmik mashqlar yordamida nafasni boshqarish, artikulyatsion apparatni mustahkamlash va nutq jarayonini faol qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan:

Dizartriyada – talaffuz mushaklarini faollashtirish uchun artikulyatsion mashqlar qo‘shiqlar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Dislaliyada – tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun musiqiy-tematik she’r va o‘yinlardan foydalananiladi.

Afaziyada – nutqni tiklash jarayonida logoritmika so‘zlarni eslab qolish va qayta tiklashni osonlashtiradi.

Amaliyotda logoritmik mashg‘ulotlar quyidagi shakllarda o‘tkaziladi. Musiqa ostida yurish, sakrash va qo‘l harakatlari – nutq ritmiga moslashtiriladi.

She’r va qo‘shiqlarni qayta-qayta takrorlash – tovushlarni aniq talaffuz qilishni rivojlantiradi.

O‘yin elementlari (qarsak chalish, qo‘lni ko‘tarish, qo‘g‘irchoqlar bilan mashq qilish) – bolalarda qiziqishni kuchaytiradi va mashg‘ulotlarni samarali qiladi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, logoritmik mashg‘ulotlarda muntazam ishtirok etgan bolalarda nutqning ravonligi, ohangdorligi va so‘z boyligi sezilarli darajada oshadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, logoritmika mashg‘ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqiy-ritmik mashqlar, she’r va qo‘shiqlar, o‘yin elementlari orqali bolalarda nutqning ritmik tuzilishi shakllanadi, talaffuz, ohangdorlik va so‘z boyligi rivojlanadi. Bundan tashqari, logoritmika nafaqat nutqiy, balki psixomotor, emotsiyonal va ijtimoiy rivojlanishga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun logoritmik mashg‘ulotlar tuzatish-terapiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, nutq apparati mushaklarini mustahkamlash, artikulyatsiyani yaxshilash, nutqni faollashtirish imkoniyatini beradi. Shu bois logoritmika mashg‘ulotlarini ta’lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llash, logopedik amaliyotda muntazam tatbiq etish bolalarning nutqiy rivojlanishini ta’minlashda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова Ш. Логопедия: назария ва амалиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 215 б.
2. Усмонова М. Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ривожлантиришда логоритмиканинг аҳамияти. – Тошкент: Истеъод, 2021. – 132 б.
3. Жураева Д. Мусиқа ва ҳаракат орқали нутқни ривожлантириш. – Самарқанд: Зарафшон, 2020. – 180 б.
4. Жукова Н.С. Логопедия для дошкольников: методические рекомендации. – Москва: Владос, 2018. – 256 с.
5. Лалаева Р.И. Логоритмика в коррекционной педагогике. – Санкт-Петербург: Речь, 2017. – 174 с.
6. Левина Р.Е. Основы логопедии: диагностика и коррекция речевых нарушений. – Москва: Академия, 2016. – 240 с.
7. Хайдарова Н. Мактабгача ёшдаги болалар билан логопедик ишлашнинг замонавий усуллари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2022. – 200 б.
8. Артемова Л.В. Логоритмические игры и упражнения для детей дошкольного возраста. – Москва: Мозаика-Синтез, 2019. – 144 с.